

# Markaziy Osiyo davlatlari Milliy fanlar akademiyalari “Akademik o‘qishlari” o‘tkazildi

2018-yilda imzolangan O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va Qirg‘iziston Respublikasi Milliy fanlar akademiyasi o‘rtasida ilmiy-texnikaviy hamkorlikni rivojlantirish to‘g‘risidagi Shartnomaga asosan joriy yilning 18-20-sentyabr kunlari To‘dako‘lda Markaziy Osiyo davlatlari Milliy fanlar akademiyalari olimlari ishtirokida “Ilm-fan yutuqlari - insoniyat taraqqiyoti xizmatida” nomli xalqaro “Akademik o‘qishlari” o‘tkazildi.



Unda O‘zbekiston Fanlar akademiyasi ilmiy-tadqiqot muassasalari yetakchi olimlari, Qirg‘iziston, Tojikiston va Qozog‘iston Milliy fanlar akademiyalaridan 20 ga yaqin olimlar, shuningdek, “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ, Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti, Navoiy davlat pedagogika institutining professor-o‘qituvchilari Markaziy Osiyo uchun dolzarb mavzular bo‘yicha o‘z ma‘ruzalari bilan qatnashdilar.



Mazkur tadbirdan ko'zlangan maqsad Markaziy Osiyo davlatlarining yetuk olimlari o'rtasida ikki va ko'p tamonlama ilmiy, iqtisodiy-ijtimoiy uzoq muddatli, samarali hamda o'zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirish, ishtirokchi davlatlarda mavjud innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish va targ'ib qilish orqali fan yutuqlarini Markaziy Osiyo davlatlari aholisining faravonligi va do'stona aloqalarni yanada mustahkamlashga yo'naltirishdir.